

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHILARI UCHUN

QO'LLANMA

Sinf: 5-sinf

Dars mavzusi: "Biz o'z xatti-harakatlarimiz uchun javobgarmiz"

Dars davomiyligi: 45 daqiqa

Dars maqsadi:

1. Mas'uliyat tushunchasini, uni his etishni va hayotdagi ahamiyatini tushuntirish.
 2. Mas'uliyatsizlikning salbiy ta'sirini ta'riflash.
 3. Mas'uliyatning inson hayotidagi o'rnini, mahalladagi va jamiyatdagi ahamiyatini yoritish.
 4. Yordam berishning ahamiyatini, insonlarning bir-biriga yordam berishi orqali jamiyatda o'zgarishlar rivojlanishini tushuntirish.
-

Kutilayotgan natijalar:

1. O'quvchilar mas'uliyat tushunchasini tushunishadi va hayotda qanday amalga oshirishni o'rganishadi.
 2. O'quvchilar o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilishadi.
 3. Mas'uliyatsizlikning zararli oqibatlari haqidagi tasavvurlari shakllanadi.
 4. Odamlarga yordam berishning ahamiyatini tushunib, ijobiy xatti-harakatlarini rivojlantirishadi.
 5. O'quvchilar o'zlariga va atrofdagilarga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishga intilishadi.
-

Metodlar:

- Rolli o'yinlar: Mas'uliyatni his qilish va yordam berish holatlari;
 - Blits so'rov: Tezkor savollarga javob berish;
 - Suhbat: Mas'uliyat va yordam berish haqida fikrlar;
 - Hikoyalar: Mas'uliyat va yordam berishga oid hayotiy misollar;
 - Bilimlarni mustahkamlash: Amaliyotdagi qoidalarga asoslangan mashg'ulotlar.
-

Foydalaniladigan materiallar:

- Plakatlar: Mas'uliyatning ahamiyati va yordam berishga oid tushunchalar, rasmlar.
- Kartochkalar: Turli vaziyatlar va yordam berishga oid holatlar.

- Rasmlar: Boshqalarga yordam berish va mas'uliyatni his qilishga yordam beradigan rasmlar.
-

Dars qismlari:

1. Darsga kirish (5 daqiqa)

- O'qituvchi: "Hammamizga ma'lumki, har birimizning hayotimizda o'z xatti-harakatlarimizga javobgarlik bor. Bu qanday javobgarlik? Bunga kim javobgar hisoblanadi?"
 - Suhbat:
 - "Mas'uliyatsizlik nimani anglatadi?"
 - "Qanday vaziyatda siz o'z xatti-harakatlaringiz uchun javobgar bo'lasiz?"
-

2. Mavzuni tushuntirish (10 daqiqa)

Mas'uliyat:

- Ta'rif: "Mas'uliyat — bu shaxsning o'z harakatlari uchun javobgarligi va boshqalarga ta'sir qiluvchi har bir qarorning oqibatlarini his etishidir."
- Misol: "Agar siz maktabda boshqa o'quvchiga yordam bersangiz, bu sizda jamiyatga va atrofdagilarga nisbatan mas'uliyat hissini rivojlantiradi."

Mas'uliyatsizlik:

- Ta'rif: "Mas'uliyatsizlik — bu o'z harakatlarining oqibatlarini e'tiborga olmaslik va o'z vazifalariga beparvolik shaklida munosabatda bo'lish."
- Misol: "Ozodalikka rioya qilish har bir o'quvchining vazifasi hisoblanadi. Ozodalikka amal qilmaslik hamda tartibsizlikka e'tiborsiz bo'lish — mas'uliyatsizlikdir va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi."

Mas'uliyatning inson hayotidagi o'rni:

- Ta'rif: "Mas'uliyat — insonning o'z harakatlariga oid huquq va burchlarini tushunib, ularga amal qilishidir. Mas'uliyat insonning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi."
- Misol: "Agar inson mas'uliyatli bo'lsa, uning hayotida ko'p foydali o'zgarishlar bo'ladi. Bu orqali atrofdagilarning ishonchini qozonish bilan birga, inson shaxsiyatidagi salbiy illatlar yo'qola boshlaydi."

Yordam berish:

- Ta'rif: "Yordam berish — bu boshqalarning ehtiyojlariga qayg'urish va ko'maklashishdir."
- Misol: "Siz maktab musobaqalarida boshqa bir insonga yordam berish orqali o'zingizning o'zgaralar oldidagi mas'uliyatingizni his qilasiz."

3. Hayotiy vaziyatlar (Keys va kazuslar) (10 daqiqa)

Keys 1:

- Holat: "Sizning do'stingiz o'yinda jarohatlandi, ammo u hech kimdan yordam so'ramayapti. Bunday vaziyatda nima qilasiz?"
 - Savollar:
 1. Bu vaziyatda siz qanday xulq-atvorni namoyon etasiz?
 2. Yordam berishga qanday qadam qo'yish mumkin?

Keys 2:

- Holat: "Do'stingiz bir o'zi imtihonga kirgan payt sizdan telefoni va sumkasiga qarab turishingizni iltimos qildi."
 - Savollar:
 1. Bunday vaziyatda siz qanday qilib javobgarligingizni his qilasiz?
 2. Siz qanday harakatlarni amalga oshirasiz va ular boshqalarga qanday ta'sir qilishi mumkin?

4. Rolli o'yinlar (10 daqiqa)

Rolli o'yin 1:

- Holat: "Do'stingiz sport musobaqasida qiyinchilikka duch kelmoqda. Nima qilish kerak?"
- Rollar: O'quvchilar hodisada ishtirok etib, yordam berish yoki mas'uliyatni his etish holatlarini jonlantiradilar.

5. Blitz so'rov (5 daqiqa)

- Savollar:
 1. Mas'uliyat qanday his qilinadi?
 2. Mas'uliyatsizlikning salbiy ta'sirlari nimada?
 3. Biz yordam berish orqali jamiyatga qanday yaxshilik qila olamiz?

6. Darsni yakunlash (5 daqiqa)

- O'qituvchi: "Biz bugun mas'uliyat, mas'uliyatsizlik, yordam berish va shaxsiy javobgarlik haqida o'rgandik. Mas'uliyatni his qilish va atrofdagilarga yordam berish har birimizning ijtimoiy mas'uliyatimizni yanada kuchaytiradi. Har biringiz hayotda mas'uliyatli shaxs bo'lib, o'z xatti-harakatlaringizni kuzatib, javobgarlik hissini rivojlantiring."

